

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



1-keys. “Yangi sinfxonadagi sir”



Vaziyat:

Aziza yozgi ta'tildan so'ng maktabga keldi. Sinfxonasi ancha o'zgargan edi: devorga katta ekran o'rnatilibdi, yangi kitoblar keltirilibdi, o'quv burchagi esa yanada qulaylashtirilibdi. Aziza hayron bo'lib: “Bularning hammasi kim uchun?” — deb so'radi. O'qituvchi: “Sizlar yaxshi o'qishingiz va ko'proq imkoniyatga ega bo'lishingiz uchun”, — dedi.



Savollar:

- 1 Aziza sinfxonada qanday yangiliklarni ko'rdi?
- 2 Bu yangiliklar o'quvchilarga qanday yordam beradi?
- 3 Yangi jihozlarni ehtiyot qilish nima uchun muhim?
- 4 Sen maktabingda yana qanday qulaylik bo'lishini xohlarding?



Topshiriq:

“Mening orzuyimdagi sinf” mavzusida uchta g'oya ayting yoki kichik rasm chizing.

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



2-keys. “Bo’sh maydon o’rnida bog”



Vaziyat:

Jahongir bobosi bilan mahallada sayr qilayotgan edi. Bobosi yangi bolalar maydonchasini ko’rsatib: “Men yoshligimda bu yer bo’sh maydon edi”, — dedi. Jahongir quvonib: “Demak, mahallamiz ham o’zgarib boryapti!” — dedi.



Savollar:

1

Mahallada nima o’zgargan?

2

Yangi maydoncha kimlarga foyda beradi?

3

Bolalar bu joyni qanday asrashi kerak?

4

Sening mahallangdagi qaysi yangilik seni xursand qiladi?



Topshiriq:

Mahallangizdagi bitta yaxshi o’zgarishni “Oldin — hozir” tarzida aytib bering yoki rasmini chizing.